



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda Kichik biznes raqobatbardoshligini baholovchi sun'iy intellekt kompozit indeksi	159
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Iltom Begmatdulobovich Mattiyev Stressni boshqarish va sog'lom hayot tarzi odatlari	163
Nargiza Muzafarovna Babaeva Biznesni muvaffaqiyatli bo'lishida ta'lim va tajribaning ta'sir darajasi tahlili	167
Камилла Бахромовна Суюнова, Шахзода Абборовна Фаилова Маркетинг инноваций как фактор динамического роста отраслей экономики Узбекистана	172
Xilola Nematovna Ochilova Lavozimlar greydingining mohiyati hamda davlat va nodavlat tashkilotlarida lavozimlar greydingi tizimini qo'llanilishi	176
Nigina Ma'rufovna Usmanova, Abdulxofiz Jamshid o'g'li Hamrayev Sun'iy intellektning inson resurslarini boshqarishni takomillashtirishga ta'siri	182
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov Korxonada xodimlarini boshqarishda KPI tizimidan samarali foydalanish yo'llari	188
ИНВЕСТИЦИЯ ВА РЕЖАЛАШТИРИШ	
Насиба Акбаржонова Усманова, Жахонгир Санжарович Каримов Проблемы при планировании проекта. иерархическое распределение работ как ключ к решению	191
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Rahmonkul Hamidovich Djalilov Respublikamizda bilvosita soliqlar auditining nazariy masalalari	195
Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова, Хушвақт Мансурович Ёдгоров Фармацевтика корхоналарининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги ташкилий-ҳуқуқий масалалари	198
Анвар Нематович Холиқулов, Азамат Ҳамроқулович Рахимов Автомобиль сервис билан шуғулланадиган субъектларнинг самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичларнинг омилли таҳлили	203
Olimjon G'ayrat o'g'li Fattoyev Aholi daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish	207
Насиба Акбаржонова Усманова, Асель Армановна Сулейманова Анализ востребованных компетенций на рынке труда и их влияние на HR-стратегии компаний.	211
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Akram Abduraxmonovich Azizqulov G'azzoliy ta'lim jarayonida shogirdning odobi xususida . (Abu Homid G'azzoliyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida shogird odobi xususida)	215
Sarvar Ayubovna Isxakova, Shaxzoda Shuxratovna Amriyeva Oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish yo'nalishlari	220
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибоевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев Метод ва методологиянинг мазмуни ва фарқлари Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари	225

ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА

Akram Abduraxmonovich Azizqulov – SamISI, Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, dotsent

G‘AZZOLIY TA’LIM JARAYONIDA SHOGIRDNING ODOBI XUSUSIDA (Abu Homid G‘azzoliyning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarida shogird odobi xususida)

Annotasiya. Mazkur maqolada Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Homid G‘azzoliyning inson ma’naviyati va shaxs kamoloti masalalariga oid falsafiy-axloqiy qarashlari, xususan ta’lim-tarbiya jarayonida talaba va o‘quvchilar tomonidan rioya qilinishi lozim bo‘lgan odob-axloq me’yorlari falsafiy-metodologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, alloma ta’limotiga xos bo‘lgan axloqiy poklik, bilimga hurmat, ustozga ehtirom, o‘zini nazorat qilish va ma’naviy kamolotga intilish kabi tamoyillarning zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimidagi o‘rni va ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Abu Homid G‘azzoliy, ilmiy-ma’naviy meros, ta’lim-tarbiya jarayoni, ustoz–shogird an’analari, axloqiy qadriyatlar, odob-axloq tamoyillari, shaxsning ma’naviy kamoloti.

Kirish. Sharqda «Hujjat al-islom» unvoni bilan mashhur bo‘lgan yirik islom mutafakkiri Abu Homid G‘azzoliyning boy va serqirra diniy-falsafiy merosida insonning ma’naviy-axloqiy takomili masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Alloma o‘zining ellikdan ortiq asarlarida inson tabiati, uning ongiy va ma’naviy rivojlanishi, axloqiy kamolotga erishish yo‘llari hamda ta’lim-tarbiya jarayonining falsafiy-metodologik asoslariga alohida diqqat qaratadi. Xususan, uning «Ihyo ulum ad-din» asarida insonning ma’naviy kamolotiga olib boruvchi tarbiyaviy omillar batafsil yoritilib, ta’lim-tarbiya jarayonining mohiyati, maqsad va vazifalari chuqur falsafiy tahlil etiladi. Asarning bir qator boblarida ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlar axloqiy tamoyillariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, unda ilm ahliga hurmat, sadoqat, pok niyat, sabr, kamtarlik va mas’uliyat kabi fazilatlar shogird uchun asosiy axloqiy me’yorlar sifatida belgilanadi.

Ta’lim jarayonida shogird rioya etishi lozim bo‘lgan axloq qoidalarini bayon etishda G‘azzoliy ta’lim-tarbiya jarayonini nafaqat bilim olish vositasi, balki insonni ma’naviy kamolga yetaklovchi muqaddas yo‘l sifatida talqin qiladi. Bu esa G‘azzoliy ta’limotining bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolayotgan ilmiy-nazariy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ayrim g‘arb va rus tadqiqotchilari tomonidan G‘azzoliy merosi “irratsionalistik-mistik” yo‘nalish doirasida baholangan bo‘lsa-da, uning fan etikasi va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari aniq ratsionallik va tizimli yondashuvga asoslangani tadqiqot jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi [1, 236]. G‘azzoliy inson bilimi, axloqiy mas’uliyat va ilmning jamiyatdagi o‘rnini chuqur falsafiy tahlil qilish orqali ta’lim-tarbiya jarayoniga yaxlit, izchil va mantiqan asoslangan konsepsiya sifatida yondashgani bilan ajralib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon ilm-fanida W. Montgomery Watt, Frank Griffel, Seyyed Hossein Nasr hamda D.Yeremeyev kabi islomshunos olimlar G‘azzoliyning tasavvufiy donolik va aqliy bilish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga qaratilgan qarashlarini alohida ta’kidlaydilar. Mahalliy tadqiqotlar doirasida esa N. Komilov, F.Muzaffarov, D.Qodirov va boshqa o‘zbek olimlari G‘azzoliyning boy ilmiy-falsafiy merosini o‘rganish, uni milliy ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish va yosh avlodga yetkazish yo‘nalishida muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda G‘azzoliyning «Al-Munqidh min ad-dalal» («Zalolatdan qutilish») asaridan ham keng foydalanildi. Umuman olganda, G‘azzoliyning ta’lim-tarbiya, axloq va ma’naviy kamolot masalalariga oid qarashlari ko‘plab ulamolar va zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning talaba (shogird) odobiga doir konsepsiyasi ijtimoiy-falsafiy hamda pedagogik nuqtayi nazardan yetarlicha kompleks tarzda tahlil qilinmagan. Shu bois mazkur tadqiqot doirasida mavjuga oid manbalarni tizimli tarzda o‘rganish va tahlil qilish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida G‘azzoliyning ta’lim-tarbiya jarayonida talaba va o‘quvchilar tomonidan rioya qilinishi lozim bo‘lgan odob-

axloq konsepsiyasini ilmiy asosda tahlil etish maqsadida ilmiy bilishning umumfalsafiy va maxsus metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, tadqiqotda xolislik (obyektivlik) tamoyili asosida manbalar va nazariy yondashuvlarni betaraf tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya hamda tizimli yondashuv kabi umumilmiy usullardan foydalanilib, olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi va xulosalarning ishonchliligi ta'minlandi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy didaktikaga muvofiq, ta'lim-tarbiya jarayoni tizimli xususiyatga ega bo'lgan, ko'p qirrali va murakkab ma'naviy-ruhiy faoliyat turi hisoblanadi. U faqat bilim uzatish bilan chegaralanib qolmasdan, shaxsning ongiy, axloqiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, G'azzoliy ta'limotiga asoslangan didaktik qarashlarda ham ta'lim beruvchi (ustoz) va ta'lim oluvchi (talaba) tomonidan rioya qilinishi zarur bo'lgan axloqiy-odob me'yorlari tizimli ravishda, alohida-alohida tarzda bayon etiladi. Masalan, birinchi vazifa: talaba avvalo qalbini jirkanch xulqlardan, mazmum-yomon sifatlardan poklay olish kerak. Islomning yirik nazariyotchisi sifatida G'azzoliy diniy ilmlarni egallash, haqiqatni bilish, Allohga yetishish ham botinan ham zohiran poklik zarurligini ta'kidlaydi. “G'azab, shahvat, gina, hasad, kibr, manmansirash» va shunga o'xshash razil sifatlarni u qopog'on itga o'xshatadi. «Agarda, deydi u, kimniki qalbida qopag'on it bo'lsa, ya'ni salbiy xulqqa ega bo'lgan bu qalbg'a farishtalar kira olmaydi, demak bunday axloq egasi sohibi ilm bo'la olmaydi. G'azab, dunyoparastlik, ochko'zlik, odamlar obro'sini to'kish, nomusini paymol etish kabi illatlarga to'lgan qalb suvratan qalb deb atalsada, siyoratan kalb-it ekanini bilib qo'y. ...Agarda qanchadan-qancha buzuq axloqli talabalar ilmga erishdi-ku, deya e'tiroz bildirsang, shunday javob beraman: Buzuq xulq bilan ilmga erishgan kishilar oxirat saodatiga eltuvchi haqiqiy foydali ilmlardan mahrum kishilardir. Haqiqiy tolibi ilm bilan buzuq xulq ila ilm talab qiluchi orasida farq katta” [2.121]. G'azzoliy zohiran va botinan poklik, na faqat diniy balki dunyoviy ilm toliblari uchun ham zarur fazilat deb hisoblaydi. Barkamol avlodni tarbiyalashda ham ma'naviy poklikka asosiy e'tibor qaratiladi. Ta'limning dastlabki onlaridan tarbiyaning ustun ahamiyat kasb etishi ham shundadir.

Ta'lim jarayonida talaba rioya etish lozim bo'lgan ikkinchi vazifani alloma quyidagicha bayon etadi: “Ilm tolibi dunyoviy mashg'ulotlarni ozaytirmog'i, aholi va vatanidan yiroqda bo'lmog'i lozim. Chunki ular bilan aloqa talabani maqsadidan chalg'itadi” [2.121]. Ruhiyatshunoslarning ta'kidlashicha o'quvchilarni ijodiy tafakkurlar qobiliyatiga ruhiy emosional holatdan tashqari oiladagi va ta'lim muassasasidagi psixologik muhit muhim rol o'ynaydi. Oiladagi nosog'lom muhit talabani fanlarni o'zlashtirish darajasiga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi yoki talaba ta'lim jarayoni bilan parallel tarzda boshqa ishlar bilan masalan, tijorat, tadbirkorlik va hokazo faoliyat bilan shug'ullansa, unda fanning nazariy asoslarini to'liq o'zlashtira olmaydi, ya'ni, tadqiqot olib borish qobiliyati susayadi. Mutafakkir fikricha “Fikrlar turli tomonga sochilgan sayin, narsaning haqiqatini bilish qiyinlashaveradi. Shuning uchun hukamolar: Sen o'zingni ilmga to'la bag'ishlamaguningcha ilm senga biror narsasini bermaydi. Butun borlig'ingni ilmga bag'ishlaganingda, ham uning biror qismiga yetishishing yana dargumon deyishgan”. G'azzoliy bu holatni izohlash uchun shunday misol keltiradi: “Har tarafga sochilgan fikr, xayol ko'plab ariqlarga tarqalib ketgan suvga o'xshaydi. Uning bir qismini yer shimadi, qolgani havoga bug'lanadi, ekinga hych narsa yetib bormaydi” [2.121]. Allomka bu yerda talaba shogirdni butun diqqatini qat'iy ta'lim jarayoniga yo'naltirishi lozimligini ta'kidlab shunday deydi: “Balki barcha ishda butunlay ishning jilovini muallimiga topshirmog'i, johil kasalning mehribon va hoziq tabibga quloq tutganidek, uning nasihatiga quloq solmog'i, unga tavoze' ko'rsatmog'i lozim” [2.121]. G'azzoliy bu yerda ustozining bilim darajasidan qat'iy nazar shogirdning doimo odob saqlashi lozimligini uqtiradi. Iqtidorli talabalalar ayrim vaziyatlarda ustozlaridan o'zib ketishlari mumkin. Xususan, Ibn Sino kabi allomalar tolibi ilmlik vaqtlari bunday holatlar ko'p sodir bo'lgan. Shu jihatdan G'azzoliy “Tolibi ilm ustoziga takabburlik qilishi joiz emas” deydi. Aksincha “Tavoze' hamda ustozini jon qulog'i ila tinglash bilangina ilmga yetishish mumkin” ligini alloma Qur'onning Kof surasi 37-oyati bilan asoslab berishga harakat qiladi [2.122].

Ta'lim jarayonida talaba o'zini qanday tutishni quyidagicha izohlaydi. “Shogird ustozini-

ning tavsiyalariga quloq solmaguncha, qalbini ilm eshitish uchun hozirlamaguncha uni fahmlay olmaydi. Muallimning ko‘rsatmalarini go‘zal tarzda eshitishi, unga itoatda bo‘lishi, shukrini, xursandchiligini, minnatdorchiligini izhor etishi lozim” [2.122].

G‘azzoliy bu o‘rinda ajoyib bir qiyoslashni keltiradi. “Talaba ustoziga nisbatan yumshoq tuproqdek bo‘lishi kerak. Qachon yumshoq tuproqqa mo‘l yomg‘ir yog‘sa, darrov o‘ziga singdiradi” [2.123]. G‘azzoliy qattiq tuproq singari, dag‘al, qo‘rs tabiatli, takabbur talabalar ustozidan ko‘zlangan bilimlarni ololmasligini bayon etadi. “Talaba ustozining aytganidan chiqib, o‘z fikrini ustun qo‘ysa, sen uni omadsiz va zararga mahkum bil”. Faqat ustoz so‘rashga izn bergan narsalar haqida savol berish lozim. Ongoing, farosating yetmaydigan narsalar haqida so‘rashning yaxshi emas. Nimaniki ustozing senga ochsa, demak, u haqida so‘rash vaqti kelgan. Tadrijiy bosqichlarning qaysi birini izhor qilish vaqti kelmagan bo‘lsa u haqida so‘rash mavridi hali yetmagan bo‘ladi” [2.124]. G‘azzoliy bu yerda ta‘limni tadrijiy bosqichlardan iborat bo‘lgan jarayon sifatida izohlaydi. Zero, har bir o‘quv kursi goh u katta, yoki kichik bo‘lishidan qat‘iy nazar bosqichma-bosqich keladigan mavzulardan iborat. Har bir mavzu mutaxassislar tomonidan pedagogik texnologiyalar asosida rejalashtirilgan. G‘azzoliy tolibi ilm birini darsdayoq barcha narsani bilish mumkin emasligini, balki bosqichma-bosqich bunga erishish lozimligini Ali(r.a.)-ning quyidagi fikrlari bilan asoslaydi. “Olimga ko‘p savol bermaslik, javobiga e‘tiroz qilmaslik, erinib turganda, javob berishga zo‘rlamaslik, o‘rnidan turishga ham qo‘ymay etagiga osilib olmaslik, sirlarini oshkor etmaslik, huzurida birortasini g‘iybatini qilmaslik, xatolarini (ustozning – A.A.) qidiravermaslik, bordiyu xato qilsa, o‘rini qabul qilish” lozimligini ta‘kidlaydi.

G‘azzoliy tolibi ilm rioya etishi lozim bo‘lgan yana quyidagi tamoyilni bayon etadi. «Tolibi ilm barcha mahmud (maqtalgan, zarur-A.A.) ilmlarni ularning biror turini qoldirmasdan o‘rgan-mog‘i va oldiga qo‘ygan maqsadiga yetmog‘i lozim. Ilmlarni o‘rganib bo‘lgach, umr sarmoyasi yetsa, ularni chuqurlashtirish kerak» [2.126]. G‘azzoliy bu yerda ilmiy bilimlarning doimo rivojlanib, takomillashib borishini nazarda tutadi. Zamonaviy epistemologiyada ham bu tamoyil mavjuddir. Chunki insonning bilish imkoniyati kengaygan sari borliqdagi narsa va hodisalarni mazmun va mohiyatiga, ularning ichki qonuniyatlarini o‘rganishga shunchalik chuqur kirib boradi. Ilmlarning rivojlanib, takomillashib borishi xususidagi fikri dialektik xarakter kasb etadi.

G‘azzoliy fikrini davom ettirar ekan yana shunday mulohazalarni bayon etadi. Ilmlarning barchasini egallashning imkoni bo‘lmasa, eng muhimlari bilan shug‘ullanish, ularni mukammallashtirish lozim. Qolganlarini kerakli jihatlarini o‘rganish lozim» [2.126]. Hozirgi zamon davlat ta‘lim standartlarida ham bu tamoyilga amal qilinadi. Xususan muayyan ixtisoslik bo‘yicha talaba o‘rganishi lozim bo‘lgan fanlar: umummetodologik, tabiiy ilmiy, ixtisoslik, mutaxassislik va qo‘shimcha fanlar bloki mavjud. Masalan sotsiologiya ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ixtisoslik fanlarini talabalar chuqur o‘zlashtirishlari talab etiladi. «Tabiiy fanlar zamonaviy konsepsiyasi» kabi fanlarni esa G‘azzoliy ta‘biri bilan aytganda kerakli jihatlarini o‘rganish kifoya» qiladi. Chunki mazkur fan sosiologiya ta‘lim yo‘nalishi uchun «ko‘makchi» fan hisoblanadi. Bu xususida G‘azzoliy shunday deydi. «Ilmlar o‘zaro bog‘liq hamda bir-birining ko‘makchisidir» [2.126].

Ixtisoslik fanlari uchun umummetodologik va tabiiy texnik fanlar ko‘makchi fan kabidir. Sotsiolog jamiyat va inson ularning ijtimoiy munosabatlarini o‘rganar ekan, tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyalarini ham bilish lozim. Chunki avvalo inson tabiatning bir bo‘lagi bo‘lib tabiat qonunlariga bo‘ysunadi hamda unga ta‘sir etadi. Shuningdek, insonlari ijtimoiy munosabatlar kechadigan makon – jamiyat ham tabiat bilan dialektik aloqadorlikni tashkil etadi. Shu jihatdan «tabiiy fanlar zamonaviy konsepsiyasi» sotsiologiya yo‘nalishi uchun G‘azzoliy ta‘biri bilan aytganda ko‘makchi fandır.

Tolibi ilm rioya etishi lozim bo‘lgan axloqiy tamoyilning navbatdagisini G‘azzoliy quyidagicha e‘tirof etadi. «Ilm olishda shogird turli ilmlarga kirishib ketmasligi, barcha tartiblarga rioya qilishi va muhumrog‘idan boshlashi kerak. Zero, inson umri barcha ilmlarni o‘rganish uchun yetmaydi».

Buni ayniqsa hozirgi zamonda fanlar differensiyalashuvida aniq ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtda mingga yaqin fan yo‘nalishlari bo‘lib inson ularni barchasini egallay olishi mumkin emas.

Buni G‘azzoliy qariyb 1000 yil avval aytib o‘tgan. «Bas shunday ekan har bir ilmning chiroyli taraflarini o‘rganib, o‘sha ilmlarning ozi bilan kifoyalanishi kerak. G‘azzoliy keyingi tamoyilni quyidagicha izohlaydi. «Avvalgi fanni mukammal o‘rganmasdan turib, boshqasiga kirishmaslik. Chunki ilmlarning zaruriyatiga ko‘ra tartib martabasi bor. Bir ilm ikkinchi ilmga yo‘l vazifasini o‘taydi. Demak, o‘sha tarkib va tadrijga rioya qilgandagina muvaffaqiyat qozoniladi» [2.118]. G‘azzoliy bayon etgan bu tamoyil zamonaviy didaktikaning ham davlat ta‘lim standartlarining ham asosiy tamoyili hisoblanadi. G‘azzoliy bu tamoyilni Qur‘onning Baqara surasining 121 oyati bilan asoslar ekan, shunday xulosaga keladi. «...Bir fanni ilmiy, amaliy o‘rganmaguncha boshqasiga o‘tmaydilar. Demak, har bir ilmni mukammal o‘rganib bo‘lgach, ulardan yuqori darajadagi ilmlarga kirishmoq lozim» [2.128]. G‘azzoliy bu tamoyilni sharhlar ekan quyidagi muhim xulosani keltiradi. «Shuni unutmaslik lozimki, har qanday ilm chegarasi odamlar uni o‘rgangan darajadan ko‘ra kengroqdir». Fan metodologiyasida fan obyekt tushunchasi mavjud bo‘lib, u fan predmetidan kengroqdir. Masalan, tabiatshunoslik fanlarining obyekt juda keng bo‘lib tadqiqot predmeti unga nisbatan torroqdir. Shu jihatdan subyekt o‘rganilayotgan obyekt to‘liq, mukammal barcha jihatlarini o‘rganish qiyindir.

G‘azzoliy tolibi ilm rioya etishi lozim bo‘lgan yana quyidagi tamoyilni bayon etadi. «Zinhor mansab, mol dunyo, obro‘ qozonish, nodorlarga tortishish va yaqinlari bilan fahrlanishni g‘oya qilib olmaslik kerak» [2.129]. Bu tamoyil zamonaviy epitemologiyada fanning axloqiy normalari va me‘yorlarida alohida ta‘kidlanadi. Fan etikasida ijodkorni tadqiqotchi ilmiy tadqiqotchi undaydigan omil mansab, mol-dunyo, obro‘ qozonish emas balki qiziquvchanlar ekanligi qayd etadi. G‘azzoliy yana quyidagi tamoyilni ilgari suradi. «Tolibi ilm ilmlarning maqsadga yetkazuvchi nisbatini yaxshi bilishi lozim».

G‘azzoliy bayon etgan fanning axloqiy normalari obyektivlik va ratsionallikka, tizimlilikka, nazariya va amaliyot mushtarakligi kabi tamoillarga asoslanganligi bois zamonaviy ta‘lim tarbiya tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu axloqiy tamoyillarga ta‘lim jarayonining barcha bosqichlarida shogird-o‘quvchilar va ustoz-muallimlar rioya etishlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, birinchidan, G‘azzoliy tomonidan ishlab chiqilgan ustoz–shogird munosabatlariga doir axloqiy tamoyillar chuqur falsafiy asoslarga ega bo‘lib, ratsional tafakkur va ma‘naviy mas‘uliyat prinsiplariga tayanadi. Bu tamoyillar insonni faqat bilim sohibi sifatida emas, balki yuksak axloq va ma‘naviy kamolotga intiluvchi shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan qomusiy tizimni namoyon etadi.

Ikkinchidan, ta‘lim jarayonida shogird tomonidan rioya qilinishi lozim bo‘lgan axloqiy me‘yorlar mantiqiy izchillik, predmetli tizimlilik va maqsadga yo‘naltirilganlik asosida bayon qilinib, ular bilim olish jarayonini axloqiy-ma‘naviy kamolot bilan uyg‘unlashtiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur me‘yorlar shogirdning ichki ma‘naviy dunyosini tarbiyalash, unda mas‘uliyat, sabr-toqat, kamtarlik va o‘ziga nisbatan tanqidiy qarashni shakllantirishga qaratilgan.

Uchinchidan, G‘azzoliy tomonidan ilgari surilgan ustoz–shogird munosabatlaridagi axloqiy tamoyillar nazariya va amaliy faoliyatning uzviy uyg‘unligiga tayanadi. Ushbu prinsiplar faqat nazariy jihatdan emas, balki kundalik ta‘lim amaliyotida tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan universal qoidalar sifatida shakllangan bo‘lib, ularning bugungi ta‘lim-tarbiya tizimida ham amaliy ahamiyatini saqlab qolyotgani tadqiqot natijalari bilan asoslandi.

G‘azzoliyning ta‘lim jarayonida shogird rioya etishi lozim bo‘lgan axlo-odob qoidalari zamonaviy ta‘lim-tarbiya tizimida o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi bois, quyidagilarni tavsiya etamiz:

Birinchidan, ta‘lim muassasalarida talaba va o‘quvchilar uchun axloq-odob me‘yorlarini ishlab chiqishda G‘azzoliyning ilmiy-ma‘naviy merosidan tizimli foydalanish;

Ikkinchidan, o‘quvchi va talabalarga “Falsafa”, “Ma‘naviyat asoslari” va “Tarbiya asoslari” kabi fanlardan mashg‘ulotlarni o‘tayotganda alloma ilmiy merosidan kengroq foydalanish lozim.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari, xususan, radio va televideniya yoshlar uchun mo‘ljallangan ma‘naviy-ma‘rifiy ko‘rsatuv va eshittirishlarni tayyorlash jarayonida G‘azzoliy-

ning axloqiy-falsafiy konsepsiyasidan samarali foydalanish zarur.

Mazkur tavsiyalar zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini boyitish, uning ma’naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlash hamda kelgusi tadqiqotlar uchun ham amaliy yo’nalish sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Еремеев. Ислам: образ жизни и стиль мышления. - М.: Политиздат, 1990.-309 с.
2. Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy. Ixyou ulumid-din. – T.: Movarounnahr, 2003. – 232 b.
3. Azizkulov A. Musulmon Sharq falsafasida rasionallik muammosi // Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. - Samarqand, 2000. - №4.-B.106-116.
4. Azizkulov A Ta’lim jarayonida muallimning vazifalari G‘azzoliy talqinida // Sharq falsafasi qadriyatlar va ularning O‘zbekiston ma’naviy hayotidagi o‘rni. (Ilmiy maqolalar to‘plami). - T.: 2009. –B.209-216.
5. Azizkulov A G‘azzoliy inson ruhiyatining mohiyati xususida // Imom Buxoriy saboqlari. – Samarqand, 2014. -№1. –B.44-48.
6. Azizkulov A G‘azzoliy inson bilish faoliyatida aqlning ahamiyati xususida// O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2014. - №1/2 Ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi. –B.136-138.
7. Азизкулов А. А., Рузимуродов С. М. Газали о значении ума в человеческой деятельности // Paradigmata poznani. – Praga. – 2014. – №. 2. – С. 43-46.
8. Азизкулов А Газали о сущности человеческого духа// Europäische Fachhochschule/ European Applied Sciences. - Stuttgart (Germaniy). -№5-2014. –pp.106-108.
9. 11Azizkulov A Ustoz-shogird munosabatlarida muallimning odobi xususida G‘azzoliy qarashlari// Globallashuv va ma’naviy taraqqiyot. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand, 2014. –B.68-74.
10. Азизкулов А Быль ли Гязали иррационалистом мистиком?// Сборник научных докладов международной научно-практической конференции «Философия в современном мире» посвященной 25-летию семинара «Проблема обоснования знания» и 70-летию юбилею профессора кудряшева Александра Федоровича. - Уфа: БашГУ, 2017. –С.9-11.
11. Азизкулов А Газзолий о нравственных принципах ученика в образовательном процессе // Инновации в технологиях и образовании Сборник статей ЧАСТЬ 4. - Белово, Велико-Тырново, Шумен Болгария 2018. –С.62-66.
12. G‘azzoliy inson bilish qobiliyati xususida // O‘zMU xabarlari. – Toshkent. – 2024. - №1/7.-B.54-57.

<p>А.Азизкулов</p> <p>Газали об этике студента в образовательном процессе</p> <p>Аннотация. В данной статье анализируются философско-нравственные взгляды великого восточного мыслителя Абу Хамида аль-Газали на вопросы духовности и личностного развития человека, в частности, этические нормы, которых должны придерживаться ученики и студенты в образовательном процессе с философско-методологической точки зрения. Также в статье освещается роль и значение принципов, заложенных в учении учёного, таких как нравственная чистота, уважение к знаниям, уважение к учителю, самоконтроль и стремление к духовному развитию в современной системе образования.</p> <p>Ключевые слова: Абу Хамид аль-Газали, научное и духовное наследие, образовательный процесс, традиции взаимодействия учителя и ученика, моральные ценности, принципы этики, духовное развитие личности.</p>	<p>A.Azizkulov</p> <p>Ghazali on the ethics of the student in the educational process</p> <p>Abstract. This article analyzes the philosophical and moral views of the great Eastern thinker Abu Hamid al-Ghazali on spirituality and personal development, particularly the ethical norms that students should adhere to in the educational process from a philosophical and methodological perspective. The article also highlights the role and significance of the principles embodied in the scholar's teachings, such as moral purity, respect for knowledge, respect for the teacher, self-control, and the pursuit of spiritual development in the modern education system.</p> <p>Keywords: Abu Hamid al-Ghazali, scientific and spiritual heritage, educational process, traditions of teacher-student interaction, moral values, ethical principles, spiritual development.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.